

MANBALAR XAZINASINING BOYISHI QADIM TARIXIMIZNI TO‘LIQ O‘RGANISH OMILI SIFATIDA

Sharifjon Ganidjanovich ISLAMOV

tarix fanlari bo‘yicha(PhD) falsafa doktori

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti

Toshkent, O‘zbekiston

sharqregister@gmail.com

Annotatsiya

Maqolada O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondining shakllanish tarixi, ilmiy ahamiyati va zamonaviy boyish jarayonlari, uning ilmiy qiymati xalqaro miqyosda e’tirof etilganligi yoritilgan.

Shuningdek, fondni boyitishda professor R.Bahodirovning shaxsiy tashabbusi bilan taqdim etilgan noyob qo‘lyozma, toshbosma va nashr etilgan asarlar kolleksiyasi, uning ilmiy ahamiyati bayon etilgan. Mavjud diniy, falsafiy va adabiy yo‘nalishdagi ba’zi manbalarning qo‘lyozma va toshbosma nusxalari tavsiflangan.

Tayanch so‘zlar: Turon, qo‘lyozma, toshbosma, adabiyot, sharqshunoslik, noyob qo‘lyozmalar fondi, din, falsafa, madrasa, ta’lim, talaba, tafsir, kalom, fiqh.

ПОПОЛНЕНИЕ БАЗЫ ИСТОЧНИКОВ КАК КЛЮЧЕВОЙ ФАКТОР ВСЕСТОРОННЕГО ИЗУЧЕНИЯ НАШЕЙ ДРЕВНЕЙ ИСТОРИИ

Шарифжон Ганиджанович ИСЛАМОВ

Доктор философии (PhD) по историческим наукам

Института востоковедения имени Абу Райхана Беруни

Ташкент, Узбекистан

E-mail: sharqregister@gmail.com

Аннотация

В статье освещаются история формирования, научное значение и современные процессы пополнения фонда рукописей Академии наук Республики Узбекистан — Института востоковедения имени Абу Райхана Беруни. Подчеркивается, что научная ценность данного фонда признана на международном уровне.

Также рассматривается значение личных инициатив в обогащении фонда на примере уникальной коллекции рукописных, литографических и печатных изданий, переданных в дар профессором Р. Бахадыровым, а также раскрывается её научная значимость. Кроме того, даётся характеристика отдельных рукописных и литографических экземпляров источников религиозного, философского и литературного содержания.

Ключевые слова: Туран, рукопись, литография, литература, востоковедение, фонд редких рукописей, религия, философия, медресе, образование, студент, тафсир, калам, фикх.

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondi respublika va xorij tadqiqotchilari faoliyatini muhim ma’lumotlar bilan ta’minlovchi dunyoga mashhur qimmatli tarixiy xazinadir. Uning ilmdagi xalqaro ahamiyati yuksak baholanib, 2000-yilda YUNESKO xalqaro tashkilotining “Butun jahon merosi” ro‘yxatiga kiritildi.

Ushbu Fondning shakllanish jarayoni 1870-yili “Toshkent ommaviy kutubxonasi” tashkil qilinishiga borib taqaladi. O‘sha paytlari uning tarkibida Sharq qo‘lyozmalari bo‘limi ham ochilib, unda qadimiy kitob va hujjatlarni to‘plash, tizimlashtirish hamda kataloglashtirish yo‘lga qo‘yiladi.

Ilmiy tadqiq etish va ommalashtirish maqsadida Sharq qo‘lyozmalari bo‘limida saqlanayotgan tarixiy qo‘lyozma asarlar 1943-yili O‘zbekiston Fanlar akademiyasida tashkil etilgan Sharqshunoslik instituti fondiga o‘tkazildi. Fondga asosan, 1970-yildan aholi qo‘lidagi qo‘lyozmalarni muntazam tarzda yig‘ish ishlari boshlab yuboriladi. Yillar davomida minglab qo‘lyozmalar yig‘ilib, mazkur Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida quyidagi bir necha alohida fond shakllanadi. Ular buyuk Turonning xazinasidir.

Fondga X–XX asrlarga oid eski o‘zbek, arab, fors, urdu, pushtu, ozarbayjon, turk, tatar, turkman, uyg‘ur va boshqa sharq tillarida yozilgan asarlar saqlanadi. Ular o‘rta asr va undan keyingi davrdagi fanning tarix, adabiyot, falsafa, huquq, falakiyot, kimyo, tabobat, geografiya, dorishunoslik, til, musiqa, matematika, ma’danshunoslik kabi sohalariga bag‘ishlangan. Bu asarlar Turkiston o‘lkasi va Sharq mamlakatlarining Turkiya, Eron, Afg‘oniston, Pokiston, Hindiston, Xitoy va Arab davlatlari tarixi, ular orasidagi siyosiy-iqtisodiy, madaniy, diplomatik aloqalar tarixini o‘rganishda qimmatli manbalardir.

Qo‘lyozmalar xazinasida Sharqning buyuk siymolari Muhammad ibn Muso Xorazmiy, Ahmad Farg‘oniy, Imom Buxoriy, Forobiy, Abu Mansur Moturidiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Mahmud Koshg‘ariy, Najmiddin Umar Nasafiy, Burhoniddin Marg‘inoniy, Mirzo Ulug‘bek singari yuzlab Turon mutafakkirlarining asarlari o‘rin olgan. Alisher Navoiyning o‘z qo‘lida tuzgan

devonlari, Abdurahmon Jomiy o‘zi ko‘chirgan asarlari, o‘zbek va fors shoirlarining ko‘plab devonlari saqlanmoqda.

Mazkur Xazina(fond)ning salmoqli qismini davlat va jamoat arboblari, olimlar, kitob yig‘ish bilan shug‘ullanuvchi shaxslarning xususiy kutubxonalaridan olingan asarlar tashkil etadi. Ular orasida naqshbandiya tariqatining yirik vakili Xoja Muhammad Porso (1348–1420), Buxoro hukmdori Amir Muzaffarning (1860– 1885-yillari davlatni boshqargan) o‘g‘li Muhammad Siddiq Xishmat, Buxoro amirligi qozisi va adabiyotshunos Muhammad Sharif Sadri Ziyo (1867 – 1935), rus hukmronligiga qarshi 1898-yil ko‘tarilgan Andijon qo‘zg‘oloni yo‘lboshchisi Muhammad Ali Dukchi Eshon (1856 – 1898), Qo‘qon xonligining taniqli amaldori va ma‘rifatparvari Yunusjon Xo‘qandiy, xorazmlik ma‘rifatchi Bekjon Rahmonov (tax. 1887 – 1929), taniqli yozuvchi va shoir, islohatchi ma‘rifatparvar Abdurauf Fitrat (1886 – 1937), Xiva xonlari kutubxonasi va Samarqand viloyati vaqf ishlari bo‘limining tub aholidan yig‘ib olgan kitoblarning anchagina qismi va yana bir nechta shaxsiy kutubxonalar e’tirofga loyiqdir.

Bundan tashqari Buxoro amirligi, Qo‘qon va Xiva xonligining saroy kutubxonalaridan jamlangan noyob qo‘lyozma asarlar majmuaning noyob durdonalari hisoblanadi. Jumladan, Hamid Sulaymon nomi ostidagi maxsus majmuaning jamlanishida o‘zbek xalqining fidoyi ziyolilaridan mashhur professor Hamid Sulaymonov va Qo‘lyozmalar instituti xodimlarining xizmati katta bo‘lgan. Undagi qo‘lyozmalar 1947 – 1990-yillar davomida aholidan sotib olingan. Mazkur fond 7587 qo‘lyozma va 6875 toshbosma asardan iboratdir. 1998-yili O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Hamid Sulaymonov nomidagi Qo‘lyozmalar instituti yopilganidan keyin unda saqlanayotgan qo‘lyozmalarning katta qismi Sharqshunoslik institutiga berilgan va bir necha yuz jild asar Alisher Navoiy nomidagi Adabiyot muzeyida qoldirilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ‘ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2017-yil 24-may 2995-son qarori asosida aholidan noyob qo‘lyozmalarni sotib olish ishlari moliyalashtirildi va jarayon qayta tiklandi. 2017

–2025-yillar davomida 326 ta qo‘lyozma, 249 ta toshbosma va 334 ta tarixiy hujjatlar sotib olindi va Fond yangi manbalar bilan boyitildi. Ayni vaqtda Fondga 26 495 jild qo‘lyozma, 40 290 jild toshbosma, 5741 dona asl nusxadagi tarixiy hujjatlar kolleksiyasi shakllandi.

Aholi tomonidan o‘z tasarrufidagi noyob manbalarni Institut xazinasiga beg‘araz topshiruvchilar ham uchraydi. Bularni millat va yurtimizning haqiqiy fidoilari, yuksak ilm-ma‘rifat sohibi bo‘lgan ajdodlariga munosib avlod vakillari desak, mubolag‘a bo‘lmaydi.

Shunday yurtdoshlarimizdan biri falsafa fanlari doktori, professor Roiqxon Bahodirov shaxsiy kutubxonasida saqlanayotgan noyob qo‘lyozma, toshbosma va tarixiy hujjatlarni Institut Fondiga hadya etgani e‘tiborga loyiqdir.

Hadya etilgan manbalar 35 dona qo‘lyozma, 128 dona toshbosma-bosma manbalar bo‘lib, aksariyati bobolari, Beklarbegi madrasasi bosh mudarrisi Bahodirxon maxdum ibn Muhammadxon ibn Yunusxo‘ja Eshonga tegishli bo‘lgan. Buni biz manbalardagi “Matrukai Bahodirxon” iborasidan xulosa qilamiz.

Mazkur manbalar orasida diqqatga sazovor noyob qo‘lyozma va toshbosma asarlar mavjud bo‘lib, ular buyuk ajdodlarimiz qalamiga mansub asarlar va qimmatli lugatlardan iborat.

Roiqxon Bahodirov taqdim etgan noyob kolleksiya tarkibidagi quyidagi ba‘zi muhim asarlarning qo‘lyozma nusxalari mavjudligi har qanday tadqiqotchi e‘tiborini tortadi. Quyidagi asarlar haqida tadqiqotchilarda keng ma‘lumotlar mavjud bo‘lsa-da, ularning o‘ziga xos jihatlari haqida ommabop va qisqa ma‘lumotlarni taqdim etamiz.

Shamsiddin Muhammad Ko‘hisoniyning “Jome’ ar-rumuz” asarining mazkur qo‘lyozma nuxasi hijriy 1233, milodiy 1815-yilda ko‘chirilgan. Mavlono Shamsiddin Muhammad ibn Husomiddin al-Hanafiy al-Buxoriy al-Xurosoniy al-Qo‘hisoniy (888–956 h./1483–1549 m.) Shayboniylar davridagi Buxoroning mashhur muftiysi bo‘lib, uning shoh asari “Jome’ ar-rumuz” nomi bilan mashhur.

“Jome’ ar-rumuz” asari arab tilida yozilgan bo‘lib, hanafiy mazhabidagi mashhur fiqhiy matn – “Muxtasar al-Viqoya”ga bitilgan sharhdir. Sharh to‘rt

jilddan iborat bo‘lib, unda “Muxtasar al-Viqoya”dagi qo‘llanilgan har bir ramz, atama va ishoralar batafsil izohlangan. Asarga bo‘lgan talabning yuqoriligi natijasida XIX asrdan boshlab Kalkutta, Laknau, Qozon, Istambul va Qohira shaharlarida qayta nashr etilgan.

Husayn Voiz Koshifiyning “Tafsiri Husayniy” asarining mazkur qo‘lyozma nuxasi hijriy 1312-yilda ko‘chirilgan. Muallifning to‘liq ismi Kamoliddin Husayn al-Voiz al-Koshifiy as-Sabzavoriy al-Hiraviy Islom olamida ilm-fanga munosib hissa qo‘shgan, yozma merosi asrlar davomida nusxalar ko‘chirish orqali ko‘paytirilib bizga yetib kelgan. Muallif Alisher Navoiy va Abdurahmon Jomiyning e‘tiborini qozongan va o‘z davrining yetuk olimi sifatida tarixiy hujjatlarda e‘tirof etilgan.

Muallifning shoh asari ikki nom bilan mashhurdir. Biri “Mavohibi Aliya” nomi bilan tanilgan. Mazkur asar Alisher Navoiyning topshirig‘iga binoan yozilgan bo‘lib, Qur’oni karimning barcha suralari tafsirini o‘z ichiga oladi. Keyinchalik “Tafsiri Husayniy” nomi bilan mashhur bo‘lib, hatto XX asr boshlariga qadar Markaziy Osiyo madrasalarida tafsir ilmi bo‘yicha asosiy qo‘llanma bo‘lib xizmat qilgan. Shu bois, hozirgi kungacha asarning yuzlab qo‘lyozmalari saqlangan.

Abul Barakot Nasafiyning “Kanzud daqoiq” asarining mazkur qo‘lyozma nuxasi hijriy 1194-yilda ko‘chirilgan. Abul Barakot Abdulloh ibn Ahmad ibn Mahmud Nasafiy milodiy XIII–XIV asrlarda yashab o‘tgan Islom olamidagi mashhur olimlardan hisoblanadi. Uning tafsir, fiqh va aqid fanlariga oid ko‘plab asarlari bizgacha yetib kelgan.

Hanafiy fiqhiga doir ko‘plab fiqhiy matnlar yozilgan bo‘lib, ular orasidagi mashhur asarlardan biri “Kanzud daqoiq” asaridir. Ushbu kitobning to‘liq nomi “Kanzud daqoiq fi ilmil furu” bo‘lib, muallifning “al-Vofiy fil furu” asaridan olingan muxtasar shaklidir. Muallif asar muqaddimasida tolibi ilmlarning keng va katta hajmli kitoblarni o‘qishdan zerikishi, inson tabiati qisqa bitilgan kitoblarga rag‘batli ekani sababli ushbu kitobni ta’lif etganini aytgan. Asar qisqa fursatlarda talabalarga fiqhning barcha boblari bilan tanishish imkonini beradi.

Ibn Abidinining “Raddul muxtor” mazkur qo‘lyozma nuxasining ko‘chirilgan davri qo‘lyozmada ko‘rsatilmagan. Muallifning to‘liq ismi Muhammad Amin ibn Umar ibn Abidin ad-Dimashqiy al-Hanafiy bo‘lib, milodiy 1784–1836-yillarda yashagan, Hanafiy mazhabining mashhur fiqh olimlaridan biri hisoblanadi.

Uning eng mashhur asari to‘liq shaklda “Raddul-Muxtor ala ad-durril-muxtor” deb nomlanadi. U “Durrul muxtor” kitobining hoshiyasi hisoblanadi. Asar o‘z davrining mazhab ichidagi ixtiloflar, fatvolar va turli fiqhiy masalalarni aniq va mukammal bayon qilgan.

Nasriddin Tusiyning “Sharh al-Ishorat” mazkur qo‘lyozmasi hijriy 935-yilda ko‘chirilgan bo‘lib, asarning qadimiy nusxalaridan biridir. Qo‘lyozma hijriy 935, milodiy 1529-yilda ko‘chirilgan asar nusxasidir. Asar muallifi Muhammad ibn Muhammad ibn al-Hasan at-Tusiy XIII asrda islom olamidagi eng yirik faylasuf, mantiqshunos, matematik, astronom va kalomi-ilmiy mutafakkirlardan biri. U, ayniqsa, Ibn Sino falsafasini chuqur sharhlab bergan “Sharh al-Ishorat va tanbihot” asari bilan mashhur.

Asar Abu Ali Ibn Sinoning “Al-Ishorat va at-tanbihot” asariga yozilgan falsafiy sharhdir. U Sharq islom olamida falsafa, kalom va ilm-fan rivojida muhim manba hisoblanadi va murakkab metafizik g‘oyalarini tizimlashtirishga yordam bergan hamda ularni keyingi avlod olimlari uchun tushunarliroq shaklda taqdim etgan.

Kolleksiya tarkibida qo‘lyozma asarlardan tashqari ko‘plab toshbosma uslubidagi nodir nashr kitoblar ham mavjud. Ularning ham ba’zilariga quyida to‘xtalamiz.

Toshbosma asarlar kolleksiyasida ko‘psonli majmua turkumidagi asarlar to‘mlamlarini uchratamiz. Majmua – bir nechta asarlar jamlanmasidan iborat, maxsus to‘plam shaklidagi, mazmunan bir-biriga yaqin asarlarni bir jildda jamlash usulidir. Quyida 1932-yilda chop etilgan, majmua tarkibidagi mazkur uch asarga to‘xtalamiz.

Abdurahmon Jomiyning “Bahoriston” nomli asari. Muallif – Abdurahmon ibn Ahmad ibn Muhammad Jomiy Hirot, Samarqand shahridagi madrasalarda

Qozizoda Rumi, Ali Qushchi, fiqhshunos Fazlulloh Abullays kabi o‘z davrining mashhur olimlaridan ta‘lim olib, Xurosonda temuriylardan Shohrux, Abulqosim Bobur, Abu Said va Husayn Boyqaro podshohligi davrida faoliyat yuritgan. Alisher Navoiy o‘zining “Hamsat ul-mutahayyirin”, “Majolis un-nafois” kabi asarlarida Jomiyning hurmat bilan tilga olgan.

Abdurahmon Jomiyning “Bahoriston” asari “Bahor bog‘i” ma‘nosini anglatadi. Asar axloqiy mazmunda bo‘lib, nasr va nazmda yozilgan hikoya, ertak, axloqiy nasihatlardan iborat. Asar sakkiz bob, muqaddima va xulosa qismlaridan tashkil topgan. Uning har bir bobi alohida “ravza” (“jannat bog‘i”) deb ataladi. Asar boblari ma‘lum bir mavzularga bag‘ilangan bo‘lib, quyidagi nomlar bilan ataladi:

Donishmandlar to‘g‘risida.

Hakimlarning hikmati sharhi.

Sultonlar haqida hikoyalar.

Judu karam vasfi haqida.

Ishq muhabbat bayoni haqida.

Mutoibalar to‘g‘risida.

Shoirlar ziki, she‘r ta‘rifi, uning turlari haqida.

Tamsil hikoyalar haqida.

Jomiy “Bahoriston” asarini 1487-yilda yozgan. Asar muqaddimasida bu kitobni Sa‘diy Sheroziyning “Guliston” asari uslubida o‘sha paytda o‘n yoshga to‘lgan o‘g‘li Ziyouddin Yusufga bag‘ishlab yozganligini qayd etgan.

Sa‘diy Sheroziyning “Guliston” asari. Muslihiddin Abu Muhammad Abdulloh ibn Mushrifiddin Sa‘diy Sheroziy forsiy zabon shoir, adib va mutafakkir bo‘lib, sharq xalqlari adabiyotida “Bo‘ston”, “Guliston” nomlari bilan mashhur asarlar muallifidir. Alisher Navoiy o‘zining “Devoni Foni” asarida Sa‘diy g‘azallariga hurmat sifatida tatabbu‘ qilgan. Hamda Navoiyning “Mahbub ul-qulub”, Abdulla Avloniyning “Turkiy guliston” asarlari bevosita Sa‘diy she‘riyati ta‘sirida yaratilganligi e‘tirof etilgan.

Sa'diy Sheroziyning "Guliston" asari 1258-yilda yozilgan bo'lib, insoniyatni komillikka yetaklovchi, donolik ramzi bo'lgan teran ma'noga ega she'r va hikoyalar to'plamini o'z ichiga olgan. Asar muqaddima, sakkiz bobga bo'lingan bo'lib, quyidagicha nomlangan:

1. Shohlarning xulq-atvori.
2. Darveshlar axloqi haqida.
3. Qoniqishning mukammalligi haqida.
4. Sukunatning afzalliklari haqida.
5. Sevgi va yoshlik haqida.
6. Zaiflik va qarilik haqida.
7. Ta'limning ta'siri haqida.
8. Hayotda xulq-atvor qoidalari haqida.

"Guliston" asari Sharq va G'arb she'riyatida keng e'tirof etilgan asarlardan hisoblanadi. U lotin, fransuz, nemis va boshqa jahon tillariga tarjima qilingan.

Badriddin Hiloliyning "Devoni Hiloliy" asari. Mavlono Badriddin Hiloliy Chig'atoiy Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy homiyligida ijod qilgan mashhur fors-tojik shoiridir. Dastlab Hiloliy (hilol – yangi oy) taxallusi bilan ijod qilgan, uning she'riy salohiyatini ko'rgan Navoiy unga Badriy (badr– to'lin oy) taxallusini taklif qilgan. Shundan keyin u har ikkala taxallusda ijod qilib, Badriddin Hiloliy nomi bilan mashhur bo'lgan. Shoirning she'riy devoni 3 dostoni va qofiya ilmiga oid risolasidan iborat. Devonda 421 g'azal, 4 qasida, 11 qit'a, 32 ruboiy, bittadan muxammas, chiston va soqiynoma o'rin olgan.

Jaloliddin as-Suyutiyning "Lubab an-nuqul fi asbab an-nuzul" asari. Mazkur toshbosma nusxa Qur'oni karim oyatlarining nozil bo'lish sabablarini o'rganishda muhim manbalardan biri hisoblanadi. Muallif Jaloliddin Abdurrahmon ibn Abu Bakr as-Suyutiy (vaf. 911 h./1505 m.) o'z davrining qomusiy olimi bo'lib, ushbu asarida oyatlarning qaysi voqea yoki savol tufayli nozil bo'lganini ishonchli rivoyatlar asosida bayon qilgan.

Asar o'zidan oldingi Abu Hasan al-Vohidiyning "Asbab an-nuzul" kitobiga nisbatan ancha mukammal va ixcham shaklda va yangi ma'lumotlar bilan

boyitilgan holda tayyorlangan. Asar oyatlarning mazmunini to'g'ri tushunish va shar'iy hukmlarni anglashda muhim qo'llanma bo'lib xizmat qiladi. Ushbu asar Misr, Bayrut va Qozon shaharlarida ko'p bora nashr etilgan bo'lib, Turkiston madrasalarida ham tafsir ilmi bo'yicha asosiy manba sifatida qadrlangan.

Faxriddin ar-Roziyning "Mafatih al-g'oyb" asari. Mazkur toshbosma nusxa islom olamida "Tafsiri Kabir" (Ulug' tafsir) nomi bilan shuhrat qozongan tafsirlardan biridir. Muallif Abu Abdulloh Muhammad ibn Umar Faxriddin ar-Roziy (vaf. 606 h./1210 m.) kalom va falsafa ilmida o'z davrining qomusiy olimi hisoblangan. Mazkur asar Qur'oni karim oyatlarini nafaqat lisoniy va shar'iy, balki aqliy, mantiqiy va tabiiy fanlar nuqtayi nazaridan ham sharhlagani bilan ajralib turadi. Asarda aqidaviy masalalar, falakiyot, tibbiyot va mantiq ilmlariga oid ma'lumotlar keng o'rin olgan. Ushbu asar o'zining hajmi va ilmiy qimmatini jihatidan islom madaniyatining shoh asarlaridan biri sanaladi. XIX asrda Qohira, Istanbul va Hindistonda bir necha bor toshbosma usulida chop etilgan bo'lib, Turkiston ulamolari orasida eng yuqori nufuzga ega manbalardan biri bo'lib kelgan.

Nosiruddin Abu Said Abdulloh ibn Umar al-Bayzoviyning "Anvar at-tanzil va asrar at-ta'vil" asari. Mazkur toshbosma nusxa islom olamidagi mashhur tafsir kitoblaridan biri hisoblanadi. Muallif Nosiruddin al-Bayzoviy (vaf. 685 h./1286 m.) o'z asarida Qur'oni karim oyatlarini ham lisoniy, ham falsafiy jihatdan chuqur tahlil qilgan.

"Anvar at-tanzil" asari o'zining mo'jazligi va mazmunining boyligi bilan ajralib turadi. Unda oyatlarning o'qilishi, lug'aviy ma'nolari hamda fiqhiy hukmlar Ahli sunna val jamoa e'tiqodiga muvofiq bayon etilgan. Ushbu asar asrlar davomida madrasalarda asosiy darslik sifatida o'qitib kelinganligi sababli, XIX–XX asr boshlarida Hindiston, Misr va Qozon bosmaxonalariida ko'p nusxada chop etilgan.

Sadr ash-shari'a al-Mahbubiyning "at-Tavzih fi halli g'ovamidit-Tanqih" asari. Ushbu asar usul al-fiqh (islom huquqshunosligi metodologiyasi) faniga oid bo'lib, muallifning o'zi yozgan "Tanqihul-usul" asariga bitgan sharhidir. Muallif

Ubaydulloh ibn Mas'ud al-Mahbubiy (Sadr ash-shari'a as-Soniy) mazkur asar orqali usul al-fiqh ilmini yangi bosqichga olib chiqqan.

“At-Tavzih” asarida islom huquqining manbalari, shar’iy dalillar va ulardan hukm chiqarish usullari falsafiy va mantiqiy nuqtayi nazardan tushuntirilgan. Keyinchalik ushbu sharhga Taftazoniy kabi olimlar tomonidan "at-Talvih" nomi bilan hoshiyalar yozilgan. Toshbosma nusxalari o‘zining mukammal xattotlik san’ati va murakkab ilmiy masalalarni qamrab olgani bilan qadrlidir.

Ubaydulloh ibn Mas'ud al-Mahbubiyning “Muxtasar al-Viqoya” asari. Ushbu asar hanafiy mazhabidagi eng mo‘tabar va keng tarqalgan fihiy matnlardan biridir. Muallif Sadrush-shari'a as-Soniy nomi bilan tanilgan Ubaydulloh ibn Mas'ud al-Mahbubiy al-Buxoriy (vaf. 747 h./1346 m.) bo‘lib, u bobosi Mahmud al-Mahbubiyning “al-Viqoya” asarini qisqartirib, ushbu kitobni vujudga keltirgan. “Muxtasar al-Viqoya” (yoki “Nuqoya”) ibodat, muomalat va oila huquqiga oid masalalarni qisqa va lo‘nda ifodalab bergani bilan mashhur. Markaziy Osiyo madrasalarida fiqh ilmidan dastlabki saboqlar aynan shu kitob asosida berilgan. Shuning uchun ham ushbu asar Toshkent, Buxoro, Qozon va Hindiston toshbosma nashrlari orasida eng ko‘p uchraydigan manbalardan sanaladi. Ushbu toshbosma nusxasi 1260-hijriy yilda ko‘chirilgan.

Sa’duddin Taftazoniyning “Muxtasar al-ma’oniy” asari. Mazkur toshbosma nusxa hijriy 1304 (milodiy 1886–1887) yilda ko‘chirilgan bo‘lib, balog‘at (arab tili ritorikasi) ilmiga oid eng muhim manbalardan biri hisoblanadi. Muallif Mas'ud ibn Umar Sa’duddin at-Taftazoniy (722–792 h./1322–1390 m.) Temuriylar davrining eng buyuk olimi va mutafakkirlaridan biri bo‘lib, Sharq madrasalarida uning asarlari asrlar davomida asosiy darslik sifatida o‘qitilgan.

“Muxtasar al-ma’oniy” asari Xatib al-Qazviniyning “Talxis al-Miftoh” kitobiga yozilgan muxtasar sharhdir. Unda arab tilining balog‘at, fasohat, bayon va badi’ ilmlari chuqur tahlil qilingan. Mazkur asarning 1304 hijriy yilda ko‘chirilgan. Asar Laknau, Dehli, Istanbul va Qozon shaharlarida ko‘p bora nashr etilgan va madrasa talabalariga balog‘at ilmidan ta’lim berishda muhim qo‘llanma bo‘lib xizmat qilgan.

Ayni paytda Roiqxon Bahodirov o‘zining shaxsiy kutubxonasidagi arab, o‘zbek, rus va Evropa tillaridagi jami 966 ta ilmiy adabiyotni Institutning ilmiy kutubxonasiga ham hadya etdi. Ushbu, ya’ni respublikamizda mavjud bo‘lmagan va Roiqxon Bahodirov tomonidan Misr, Iroq, Livan, Suriya va boshqa qator xorijiy davlatlarga xizmat safari asnosida sotib olingan adabiyotlar soha tadqiqotchilariga tayanch manbalar sifatida xizmat qilishiga ishonchimiz komil. Bu adabiyotlarning hozirga vaqtda notinch mamlakatlar – Iroq va Suriyadan olib kelingan muayyan qismining yo‘qolganligini etiborga olgan holda ular alohida qimmatga egaligini zikr etish joiz.

Mazkur qo‘lyozma va toshbosma manbalar hamda adabiyotlar nafaqat Institut Xazinasini va kutubxonasini boyitishga xizmat qiladi, balki ilmiy izlanishlar olib borayot yosh tadqiqotchilar hamda Institutimizga muroja‘at qiluvchi barcha ilmiy xodimlarga yangi tadqiqotlarga imkoniyat yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Вахидов Ш., Чориев З. Садри Зия и его библиотека (из истории книги и книжной культуры в Бухаре в начале XX века). – Ташкент: Yangi asr avlodi. 2007. – 182 с.
2. Зиёдов Ш. Хожа Муҳаммад Порсо кутубхонасига оид янги маълумотлар // Шарқшунослик, 2013. – № 2. – Б.142-149.
3. Зиёдов Ш. Хожа Муҳаммад Порсо кутубхонаси // Диншунослик фанларининг долзарб муаммолари. Илмий тўплам I том. Тошкент Ислон университети нашриёти. – Тошкент, 2009. – Б. 106-114.
4. Исмоилов М. Хожа Муҳаммад Порсо илмий меросига оид янги маълумотлар // Sharqshunoslik, 2015. – № 2-3. – Б. 137-142.
5. Қосимова О. Ўзбекистонда кутубхоначилик иши тарихи. – Тошкент: Ўқитувчи, 1977. – 156 б.
6. Муродов А. Ўрта Осиё хаттотлик санъати тарихидан. – Тошкент: Фан, 1971. – 220 б.

7. Муниров К, Носиров А. Алишер Навоий қўлёзма асарлари каталоги. – Тошкент: Фан, 1970. –106 б.
8. Носиров А. Қўлёзма асарлар ҳақида. Қўлёзма. ЎзР ФА ШИ. Инв № 13426.
9. Носиров А. Тошбосма китоблар рўйхати. Қўлёзма. ЎзР ФА ШИ. Инв № 13472.
10. Носиров А. Матбаалар кўрсаткичи ва тиражи ҳақида манбалар. Қўлёзма. ЎзР ФА ШИ. Инв № 13461.
11. Носиров А. Ўзбекистонда китоб босиш ва матбаачилик ишларига доир материаллар. Қўлёзма. ЎзР ФА ШИ. Инв №13478.
12. Охунжонов Э. Ватан кутубхоначилиги тарихи. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси, 2008. – 308 б.
13. Ўзбекистон ССР Фанлар академиясининг Шарқ қўлёзмалари тўплами (Тузувчилар: А.Ўринбоев, Л.М. Епифанова). Т.VII. – Тошкент: Фан, 1964.
14. Ўзбек тилидаги тошбосма китоблар каталоги (Тузувчилар: Б.Қосимхонов, Ҳ.Лутфиллаев, Ш.Исламов). 1-жилд. – Тошкент. 2014. – 364 б.
15. Шарифжон махдум Садр Бухорий – Зиё Садр Шарифжон махдумнинг шахсий кутубхонаси (*Масъул муҳаррир: А.Эркинов*) <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/tarix/ziyo-sadr-sharifjon-maxdumning-shaxsiy-kutubxonasi-01.html>
16. Ziyodov Sh., Muminov A., Nekrasova E. «La “Bibliothèque de Khwâja Muhammad Pârsâ” revisitée», dans Écrit et culture en Asie centrale et dans le monde turco-iranien, Xe-XIXe siècles, Francis Richard et Maria Szuppe (eds.), Paris: Association pour l’Avancement des études iraniennes, 2009, pp. 17-41.
17. Vohidov Sh., Erkinov A. Le fihrist (catalogue) de la bibliothèque de Sadri Ziya: une image de la vie intellectuelle dans le Mavarannahr (fin XIX e – deb. XX s) // Cahiers d Asie Centrale. 1999. p.141–174.
18. The Treasury of Oriental manuscripts. Published by UNESCO, Turkey: Mega Basim, 2012. – 150 p.